

ERKIN VOHIDOV VA ABDULLA ORIPOV IJODINING  
O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI O‘RNI

*Norboyeva Zuhra Alijon qizi*

*alidjanovnaaa999@email.com*

*O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti,*

*Ingliz filologiyasi fakulteti, Toshkent, O‘zbekiston*

**Annotatsiya:** Adabiyot har bir millatning ma’naviy boyligi, tarixiy xotirasi va kelajakka yo’naltiruvchi mayog‘idir. O‘zbek adabiyoti asrlar davomida rivojlanib, turli davrlar va uslublarni o‘z ichiga olgan. XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek she’riyati yangi bosqichga ko’tarildi va bu davrda Erkin Vohidov hamda Abdulla Oripov kabi shoirlarning ijodi muhim o‘rin egalladi. Ushbu maqolada bu ikki shoirning ijodi, uslubi va ular yaratgan asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning she’rlari orqali vatanparvarlik, insoniy qadriyatlar va falsafiy mushohadalarning aks etishi muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, o‘zbek she’riyati, vatanparvarlik, falsafiy she’riyat, mustaqillik, adabiyot, istiqlol g‘oyalari, milliy qadriyatlar.

Adabiyot har bir millatning ma’naviy boyligi, tarixiy xotirasi va kelajakka yo’naltiruvchi mayog‘idir. O‘zbek adabiyoti ham asrlar davomida rivojlanib, turli davrlar va uslublarni o‘z ichiga olgan. Shoir va adiblar xalqning dardini ifoda etish, ma’naviyatini boyitish va milliy o‘zligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, yangi davr o‘zbek she’riyati shakllandi va rivojlandi. Bu davrda shoirlar milliy ruh, istiqlol g‘oyasi, xalq hayoti va insoniy qadriyatlarni o‘z asarlarida aks ettirishga harakat qildilar. ang davr o‘zbek she’riyatining yirik vakillari sifatida Erkin Vohidov va Abdulla Oripovni tilga olish mumkin. Ularning ijodi mustaqillik davrida o‘zbek xalqining orzu-umidlari, vatanparvarlik tuyg‘usi va insoniylik qadriyatlarini aks ettirgan holda, she’riyatning eng yuqori cho‘qqilaridan joy oldi. Har bir shoir o‘ziga xos uslub va ifoda shakliga ega bo‘lib, ularning asarlari o‘zbek adabiyotining eng yuksak namunalaridan hisoblanadi. Quyida ushbu shoirlarning ijodi, uslubi va asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

**Erkin Vohidov – Uning vatanparvarlik va falsafiy she’rlari**

Erkin Vohidov o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan bo‘lib, uning ijodida vatanparvarlik va falsafiy tafakkur asosiy o‘rin tutadi. U 1936-yilda tug‘ilib, umrining ko‘p qismini o‘zbek adabiyotini rivojlantirishga bag‘ishladi. U “Tong Nafasi” (1961), “Qo‘shiqslarim sizga” (1966), “Tirik Sayyoralar” (1972) kabi she’riy to‘plamlarni yaratgan. Uning “O‘zbekiston” kabi she’rlari milliy g‘ururni uyg‘otuvchi asarlar sirasiga kiradi. Shoirning she’rlarida vatan taqdiri, millat tarixi va insoniy qadriyatlar

chuqur aks etgan. Shoir qalamiga mansub **“Tengdoshim, asrdosh birodar” she’ri ham ushbu insoniy qadriyatlar aks ettirilgan:**

Tengdoshim, asrdosh birodar!  
Kel, bir on jim o‘yga chomalik.  
Bu yerda yotibdi fidolar,  
Kel, uni gullarga komaylik.  
Ular yotibdi jim va sokin,  
Vatan deb ketishgan yo‘lidan.  
Kel, ularning ruhin shod aylaylik,  
Qoldirmay bitta ham g‘amidan.  
Bu yurtga bahorlar qaytganda,  
Quvonch va shodlikdan so‘zlaylik.  
Qahramon yigitlar sha’niga,  
Bir marta qalban tiz cho‘kaylik.

Bu she’rda shoir insoniyatga urush dahshatlarini unuttirmaslik va qahramonlarning mangu xotirasini saqlashni targ‘ib qiladi. U urush qurbonlariga nisbatan hurmat, fidoyilik va tinchlikni qadrlash g‘oyalarini ilgari suradi. She’rdagi “fidolar” so‘zi o‘z hayotini Vatan yo‘lida qurbon qilgan yigitlarni anglatadi. Shoirning “Kel, uni gullarga komaylik” degan chaqirig‘i esa ularning xotirasini hurmat bilan yod etishga undaydi. She’rdagi hissiyot kuchi chuqur va samimiy bo‘lib, u inson qalbiga ta’sir qiluvchi ma’noga ega. Shoir jasorat va vatanparvarlikni ulug‘laydi va urushning achchiq xotiralari orqali tinchlikka intilishni tarannum etadi.

#### **Abdulla Oripov – Istiqlol shoiri**

Abdulla Oripov 1941-yilda tug‘ilgan va o‘zbek she’riyatining eng ulug‘ siymolaridan biri hisoblanadi. U istiqlol g‘oyalarini, vatanparvarlik, insoniylik va adolatni tarannum etgan. Shoir “Jannatga yo‘l” (1981), “Yurtim shamoli” (1991), “Ko‘nglimda bir yor” (2003) kabi she’riy to‘plamlarni yaratgan. Uning she’rlari xalq dardi, milliy g‘urur va falsafiy mushohadalar bilan boyitilgan. **“Shundaylar bor, senga lutf aylab” nomli she’ri ham A. Oripovning serqirra ijodkor ekanligini isbotlaydi:**

Shundaylar bor, senga lutf aylab,  
Do‘stman, deya senga qo‘lin tutarlar.  
Lekin har zum qadaming poylab,  
Xato qilishingni kutarlar.

Bu satrlarda shoir do‘stlikning ikkiyuzlamachilikdan xoli bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Ba’zi odamlar do‘st sifatida ko‘rinsa-da, aslida dushman kabi yashirin xurofot bilan yashaydi. Ularning kutilayotgan narsa faqatgina xatodir.

Xato qilsang, ularga bayram,  
Yo‘qsa, zahru zaqqum yutarlar.

Mayli, jindek, zarra bo'lsa ham,

Xato qilishingni kutarlar.

Bu misralarda inson hayotidagi hasadgo'y va makkor kishilar tasvirlangan. Ular doim insonning qoqilishini kutishadi va bunga erishsalar, xuddi bayram qilgandek quvonishadi.

Ular senga bir umr yo'ldosh,

Sodiq hamroh kabi o'tarlar.

Qabring uzra egsalar ham bosh,

Xato qilishingni kutarlar.

Shoir bu yerda ikkiyuzlamachilikni chuqur fosh etadi. Ba'zi odamlar hatto insonning o'limidan keyin ham uning kamchiliklarini eslash va uni yomonlash bilan band bo'lishadi. Bu fikr ijtimoiy hayotning achchiq haqiqatlaridan biri sifatida aks ettirilgan. Abdulla Oripovning ushbu she'ri inson tabiatidagi ikkiyuzlamachilik va hasadgo'ylikni fosh etadi. Shoir bu kabi insonlar borligini tan olish bilan birga, ulardan ehtiyot bo'lish lozimligini ham urg'ulaydi. U o'zining falsafiy she'riyati orqali insoniyatni yaxshilikka, samimiyatga chaqiradi.

Erkin Vohidov va Abdulla Oripov o'zbek adabiyotida beqiyos o'rin tutgan ijodkorlardir. Ularning she'rlari mustaqillik ruhini, milliy qadriyatlarni va insoniylik fazilatlarini tarannum etadi. Erkin Vohidovning vatanparvarlik va falsafiy she'rlari, Abdulla Oripovning istiqloq va insoniy qadriyatlarni madh etuvchi asarlari bugungi kunda ham dolzarb va ahamiyatlidir. Ushbu maqolada shoirlarning eng muhim she'riy namunalarining tahlili berildi, bu esa o'zbek adabiyotida ularning ulkan o'rnini ko'rsatib turadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vohidov, E. (1961). Tong Nafasi. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
2. Oripov, A. (1981). Jannatga yo'l. Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Vohidov, E. (1972). Tirik Sayyoralar. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Oripov, A. (1991). Yurtim shamoli. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
5. Umumiy Sunnat, A. Begali, Q. Rahmon, Qo'chqorov. va Shuhratilla, R. (2020). "Adabiyot o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik", "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 208-211.
6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Erkin\\_Vohidov](https://uz.wikipedia.org/wiki/Erkin_Vohidov)
7. <https://mum-toz.narod.ru/oripov.htm>